

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

«TASDIQLAYMAN»

**O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya
va sport universiteti Ilmiy ishlar va
innovatsiyalar bo‘yicha prorektor
Sh.Sh. Gaziyeu**



2026-yil

**19.00.06 – “Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi”
ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura, doktorantura hamda mustaqil
izlanuvchilikka talabgorlar uchun suhbat va kirish imtihonlari**

DASTURI

Dastur O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti
Kengashining 2026-yil ____ avgustdagi ____-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

A.Shopulatov O'zDJTSU Sport psixologiyasi va pedagogika
kafedrasi mudiri, p.f.d. (DSc), professor.

Z.Gapparov O'zDJTSU Sport psixologiyasi va pedagogika
kafedrasi professori, p.f.d. (DSc), professor.

J.Ishtayev O'zDJTSU Sport psixologiyasi va pedagogika
kafedrasi professori, p.f.d. (DSc), professor.

Taqrizchi:

L.G.Korobeynikova O'zDJTSU Sport psixologiyasi va pedagogika
kafedrasi professori, b.f.d. (DSc), professor.

N.SH.Umarova O'zMPU Amaliy psixologiya kafedrasi mudiri,
psixol.f.d. (DSc), professor.

KIRISH

Fanning maqsadi va vazifalari

19.00.06 – “Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi” ixtisoslik fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

Doktorant va mustaqil izlanuvchilarni:

- psixik rivojlanish va uning o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish;
- psixik rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlari (omillari), ularning ta’sir mexanizmi to‘g‘risida ilmiy tasavvur hosil qilish;
- yosh davrlari tasnifi, psixik taraqqiyotning turli bosqichlari uchun xos psixofiziologik va psixologik xususiyatlar haqida ma’lumot berish;
- ta’lim-tarbiya jarayonining psixologik asoslari, o‘qituvchi faoliyatining psixologik xususiyatlariga oid bilim bilan qurollantirish;
- psixik taraqqiyot va pedagogik faoliyat psixologiyasi qonuniyatlari asosida o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Fanning o‘quv rejasidagi fanlar bilan bog‘liqligi.

«Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi » mutaxassislik fani quyidagi fanlar bilan bevosita bog‘liq:

Fiziologiya, sport psixologiyasi, psixologiya tarixi, jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi, umumiy psixologiya, sport psixodiagnostikasi, psixokorreksiya va psixokonsultatsiya.

ASOSIY QISM

Yosh davrlar va pedagogik psixologiya fanlarining predmeti va vazifalari

Yosh va pedagogik psixologiya fanlarining predmeti, maqsad va vazifalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanlarining asosiy muammolari. Yosh va pedagogik psixologiya fanlariga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelish tarixi. Yosh va pedagogik psixologiya fanlarining asosiy sohalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanlarining boshqa fanlar bilan aloqasi yuzasidan nazariy bilimlarni mustaxkamlab, amaliyotga yo'naltirish.

Psixik rivojlanish va uni davrlashtirish muammosi

Psixik rivojlanish haqida tushuncha, uning o'ziga xos xususiyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Psixik rivojlanishning asosiy omillari. Yosh tushunchasi. Psixik rivojlanishni davrlashtirish muammosi (qadimiy va zamonaviy tasniflar).

Yosh davrlar psixologiyasining metodlari

Yosh va pedagogik psixologiya fanlarining tadqiqot metodlari va sohalari. Yosh va pedagogik psixologiya fanlari doirasidagi tadqiqotlarda qo'llanadigan empirik - tashkiliy, qayta ishlash va talqin etish metodlari, tadqiqotlarning asosiy sohalari – yosh davrlari va pedagogik psixologiya fanlarining alohida bo'limlarini aniqlashtirish.

Psixik rivojlanish xakidagi nazariyalar va asosiy masalalar

Yosh davrlarining genetik epistimologiya nazariyasidagi tasnifi haqida. (J.Piaje). Yosh davrlarining psixoanaliz nazariyasidagi tasnifi haqida (Z.Freyd). Sotsiogenetik yondashuvda yosh davrlari tasnifi haqida (E.Erikson). Yosh davrlarining etakchi faoliyat nuqtai nazaridan tasniflanishi haqida (D.B.Elkonin). Psixik rivojlanishda yosh davri inqirozi muammosi yuzasidan nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliyotga yo'naltirish.

Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish.

Perinatal va chaqaloqlik davrida psixofiziologik rivojlanishga xos xususiyatlar haqida umumiy tushuncha. Tug'ilish davri inqirozi. «Tirilish kompleksi» haqida. Go'daklik davrida psixik rivojlanishda kattalar bilan emotsional muloqotning ahamiyati (emotsional deprivatsiyaning salbiy oqibatlar). Bir yosh inqirozi haqida. Ilk bolalik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida nutqning rivojlanish xususiyatlari. Ilk bolalik davrida o'z-o'zini anglashning rivojlanishi va 3 yosh inqirozi haqidagi nazariy bilimlarni tarkib toptirish

Maktabgacha yosh davrida psixik rivojlanish xususiyatlari

Maktabgacha yosh davrida psixofiziologik taraqqiyotning umumiy tavsifi. O'yin maktabgacha yoshdagi bolaning etakchi faoliyati sifatida (o'yin faoliyatining

mohiyati, turlari, bilish jarayonlari va shaxs taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari, o'yinchoqning bola psixik rivojlanishiga ta'siri muammosi). Maktabgacha yosh davrida bilish jarayonlari va nutqning rivojlanishiga xos xususiyatlar. J.Piaje fenomenlari haqida tushuncha. Maktabgacha yosh davrida tafakkur egotsentrizmi muammosi. Maktabgacha yosh davrida emotsional-irodaviy sifatlarning rivojlanish xususiyatlari. Maktabgacha yosh davrida ijtimoiy emotsiyalarning shakllanishi. Maktabgacha yosh davrida motivatsion sohadagi o'zgarishlar va shaxsning «birinchi tug'ilishi» (A.N.Leontev). 7 yosh inqirozi, uning sabablari va alomatlari. Maktabga psixologik tayyorlik muammosi yuzasidan nazariy hamda amaliy bilimlarni shakllantirish.

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish xususiyatlari

Kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanishning umumiy tavsifi. Kichik maktab yoshidagi bolaning maktabga moslashishi muammosi. Kichik maktab yoshi davrida kognitiv - affektiv sohalardagi rivojlanish xususiyatlari. Kichik maktab yoshi davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (o'quv faoliyati, shaxslararo munosabatlarning motivatsion asoslari). Kichik maktab yoshi davrida bolaning o'zi haqidagi tasavvurlari va xulq-atvori. Pedagogik baho va kichik maktab yoshi davrida psixik rivojlanish aloqasining psixologik mexanizmlari. Kichik maktab yoshida bola shaxsining rivojlanish xususiyatlari yuzasidan nazariy bilimlarni mustaxkamlab, amaliyotga yo'naltirish.

O'smirlik davrida psixik rivojlanish xususiyatlari.

O'smirlik davridagi psixik rivojlanishning umumiy tavsifi (o'smirlikda jismoniy o'sish xususiyatlari, jinsiy etilish jarayoni, uning psixik rivojlanishga ta'siri haqida umumiy tushuncha). o'smirlik davri inqirozi va uning psixologik, psixofiziologik sabablari. o'smirlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. o'smirlik davrida motivatsion sohadagi rivojlanish xususiyatlari (tengdoshlar bilan muloqot qilish motivatsiyasi, o'quv faoliyati motivatsiyasi, jinoiy xulq-atvor motivlari). o'smirlik davrida shaxsning rivojlanish xususiyatlari (shaxs tug'ilishining 2-davri – A.N.Leontev). o'smirlik davrida o'z-o'ziga baho berish tizimining rivojlanish xususiyatlari. o'smirlik davrida xarakter aksentuatsiyasi muammosi borasidagi tasavvurlarni hosil qilish.

Ilk o'spirinlik yoshining psixologik xususiyatlari

Ilk o'spirinlik davri psixologiyasiga umumiy tavsif (psixofiziologik rivojlanish xususiyatlari, o'quv faoliyati xususiyatlari, ijtimoiy xulq-atvordagi umumiy o'zgarishlar). Ilk o'spirinlik davrida intellektual va emotsional rivojlanish xususiyatlari. Ilk o'spirinlik davrida do'stlashish muammosining psixologik xususiyatlari. Ilk o'spirinlik davrida muhabbat. Ilk o'spirinlik davrida o'zini-o'zi anglashning rivojlanishi (o'zini-o'zi baholash, hurmat qilish, shaxsiy va ijtimoiy identifikatsiya muammolari). Ilk o'spirinlik davrida o'quv-kasbiy faoliyatning etakchi faoliyatga aylanishi va kasb tanlash muammosi. Ilk o'spirinlikda kasbga

yo'naltirishning psixologik muammolari yuzasidan nazariy bilimlarni mustaxkamlab, amaliyotga yo'naltirish.

Yetuklik davrining psixologik xususiyatlari

Yetuklik davrining tabakalanishi. Erta etuklik, urta etuklik, kechki etuklik. Biologik umr, ijtimoiy umr va psixologik umr tushunchalariga ta'rif. Yetuklik davrida yuz beradigan asosiy fiziologik uzgarishlar.

Psixogerontologiya

Psixogerontologiyaning fan sifatida shakllanishi. Hozirgi davrning asosiy ijtimoiy-gerontologik muammolari. Qarilik davrining anatomik-fiziologik xususiyatlari va asosiy jismoniy o'zgarishlari.

Qarilik davrining ijtimoiy muammolari. Emosional etishmovchilik sindromi. Eydjizm. Gerontologik davrdagi shaxslararo munosabatlar. Qarilik davrining asosiy emotsional xususiyatlari. Moslashuv va yolg'izlik muammolari. "Yolg'izlik hissi" kompleksi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Qarilarni ijtimoiy - psixologik jihatdan qo'llab - quvvatlash muammolari.

Uzoq umr ko'ruvchilar psixologiyasi. Uzoq umr ko'rishning biologik ijtimoiy va psixologik omillari. Ijodiy salohiyat.

Qariyalar bilan psixologik - konsultasiya tadbirlarini olib borish xususiyatlari. Qariyalar uyida psixolog faoliyati v uni takomillashtirish tadbirlarini ishlab chiqish.

Ta'lim jarayonining psixologik asoslari

O'rganish jarayonining mohiyati, turlari. Ta'lim jarayonining psixologik mazmuni, tarkibiy tuzilishi. Ta'lim jarayonida o'quv motivasiyasi va uni boshqarish muammosi. Ta'lim va psixik rivojlanish munosabati (ta'limning psixik rivojlanishga ta'siri mexanizmlari. Ta'lim to'g'risidagi qonunning mazmun va mohiyati. Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonunning mazmun va mohiyati.

Pedagogik faoliyat

Pedagogik faoliyatning psixologik asoslari. Pedagogik faoliyatning psixologik xususiyatlari, pedagogga qo'yiladigan ijtimoiy talablar va pedagogning o'ziga-o'zi talab qo'yishi muammosi, o'qituvchining kasbiy moslashishi muammosi, pedagogik qobiliyatlar tasnifi, pedagogning individual faoliyat uslubi, hamda o'z bilim va mahoratini oshirish muammolarini muhokama etish.

Pedagogning professional kompetentligi

Pedagogik jarayon ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari psixologiyasi. O'qituvchi - o'quvchi munosabatlarining psixologik muammolari (pedagogik muloqot, pedagogik takt, pedagogik o'zaro ta'sirda o'zini-o'zi boshqarish, kommunikativ madaniyat), o'quv jamoasi faoliyatini boshqarishning psixologik asoslari, pedagogik jamoadagi psixologik iqlim va uning pedagogik faoliyat

samaradorligiga ta'siri, pedagogning o'quvchilar ota-onalari bilan munosabati psixologiyasi muammolarini muhokama etish.

Dissertatsiya va uni rasmiylashtirish talablari.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi va avtoreferatini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar, fan doktori (DSc) dissertatsiyasi va avtoreferatini rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarning mazmun hamda mohiyati. Mundarija, kirish, asosiy qism boblari, hulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalarning mazmun va mohiyati

Foydalaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati **Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar**

1. G'oziyev. Ontogenez psixologiyasi. T. 2010.
2. G'oziyev. Psixologiya (Yosh davrlari psixologiyasi). T. 2002.
3. Nishonova Z.T., Alimova G.Q. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. T. TDPU, 2005.
4. Gapparov Z.G "Sport psixologiyasi" Darslik. Toshkent "O'zkitob savdo nashriyot matbaa ijodiy uyi" 2021-300b.
5. Ishtayev J.M. "Sport psixologiyasi". O'quv qo'llanma. T. "O'zkitobsavdo", 2020. 232 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 6(766)-son.–70-modda.–B.25-151.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" PF-2909-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.–18(778)-son.–313-modda.–B.18-24.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.–23(783)-son.–455-modda.– B.47-69.
4. Mirziyoev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz/- Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 488 b.
5. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlili, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – xar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va

2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14 yanvar. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.

6. Райс Ф. Психология подросткового и юношеского возраста. М.2003

7. Эльконин Д.Б. Детская психология. М. 2000

8. Ефимкина Р.П. Детская психология. М. 2003.